



YOSH ILMIY TADQIQOTCHI

MAVZUSIDAGI RESPUBLIKA
ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI

MAQOLALAR TO'PLAMI

2025-yil 12-13-mart

BUXORO DAVLAT UNIVER



Google
Scholar

	Yoqubjonovich	<i>baliq yetishtirishga ixtisoslashgan xo'jaliklarining mamlakatimizda ekologik turizm infratuzilmalarini yaratish va rivojlantirishdagi o'rni</i>	
47.	Anvarova Sevinch Asrorovna	<i>O'zbekistonda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish</i>	241
48.	Bo'stonova Zilola Bo'ston qizi	<i>O'zbekistonda turizmning rivojlanish tarixi</i>	245
49.	Nuriddinova Gulsanam Bahridin qizi Narzullayeva Gulchehra Salimovna	<i>Raqamli valyutalar va markazlashmagan moliya tizimlari: o'zbekiston iqtisodiyotida yangi istiqbollar</i>	249
50.	Махамбетуллаева Асем Фархатовна Абдужалилова Дилноз Абдусаттаровна	<i>Учет доходов государственного бюджета</i>	258
51.	Xodjayev Anvar Rasulovich	<i>Franshiza biznesida raqobatbardoshlikni oshirish uchun innovatsion marketing usullari</i>	263
52.	Nasimov Dilshodbek Hotam o'gli	<i>O'zbekistonda qayta tiklanadigan energiya manbalarini rivojlantirishda yashil iqtisodiyotga o'tishning asosiy omili sifatida</i>	268
10-SHO'BA FILOLOGIYA			273
53.	Ozoda Sharipova	<i>O'zbek xalq paremalari leksikonidagi milliy-madaniy chizgilar (vatan va vatanparvarlik haqidagi paremlar asosida)</i>	273
54.	Jurakulova Parizoda	<i>The importance of cultural awareness and critical thinking in second language learning</i>	280
55.	To'xsanov Qahramon Juraqulov Muhammadamin	<i>XVI-XIX asrda yaratilgan tazkiralalar va ularning xos xususiyatlari</i>	285
56.	Nazarbaeva Shakhina Bakhtiyorovna	<i>Moderne methoden deutsch lernen und ihre eigenschaften</i>	293
57.	Mirzakamolova Sadoqatxon Sayidaxmadovna	<i>Diniy nutqda samimiylik</i>	296
58.	Ismoilova Ma'mura Ochilovna	<i>O'quvchilarda kitob mutolaasi madaniyatini shakllantirish usullari</i>	298
59.	To'xsanov Qahramon Rahimboyevich Juraqulov Muhammadamin	<i>Sharifjon maxdumi Sadri Ziyo shaxsiyati Sadridin Ayniy nigohida</i>	304
60.	Hojiyeva Nigina Hayot qizi Ashurova Asalxon Barot qizi	<i>O'zbek xalq maqollarida o'simlik nomlarining qo'llanishi</i>	309

yillarda turizm sohasi boshqa ittifoqdosh respublikalardagi singari o‘lkamiz hududida ham rivojlana boshladi. Aynan shu davrda O‘rta Osiyo mamlakatlari bo‘ylab dastlabki turistik marshrutlar yo‘lga qo‘yilgan. Ammo shu narsani ta’kidlash kerakki, bu davrda Sovet ittifoqining ma’muriy-buyruqbozlikka asoslangan tizimi tomonidan unga mos ravishda ishlab chiqilgan kommunistik mafkuraning soxta g‘oyalari bilan sug‘orilgan besh yillik reja va dasturlari ijrosini ta’minlash maqsadida, sohada sifat emas, miqdor ketidan quvish avj oldi⁸.

Turizm sohasini taraqqiy ettirish sovet xalqini tarbiyalash vositasi sifatida ham namoyon bo‘lgan. Mamlakatda ham ichki turizmni, ham tashqi turizmni yuksaltirish asosiy vazifalardan biriga aylangan.

O‘zbekiston mustaqillikka erishgandan so‘ng turizm sohasining imkoniyatlarini hisobga olgan holda keng rivojlantirish ishlari boshlab yuborildi. Yurtimizning turizm salohiyatini so‘zlar ekanmiz, o‘zbek xalqining ko‘z oldiga muhtasham tarixiy obidalar, milliy va zamonaviy qiyofaga kirib borayotgan shaharlarimiz, butun dunyoda mashhur milliy libos-atlas va adraslarimiz keladi. Chunki xalqimiz ajdodlaridan bugungi kunga qadar saqlanib kelayotgan me’moriy yodgorliklari bilan faxrlanadi.

Kichik ilmiy tadqiqot natijasida mustaqil O‘zbekistonda turizmning rivojlanish tarixini besh guruhga bo‘lib o‘rganishni maqsad qildik.

Birinchi bosqich 1992-yilni o‘z ichiga oladi. Bu yil o‘lkamizda milliy turizmning dastlabki shakllantirilishi bilan xarakterlanadi. Bu bosqich shu bilan izohlanadiki, turizm infratuzilmasida aholiga qulay shart-sharoitlar yaratish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining 1992-yil 27-iyuldagi Farmoniga binoan “O‘zbekturizm” Milliy kompaniyasiga asos solindi.

Ikkinchi bosqich 1993-1995-yillarda turizmning milliy rivojlanish modeli ishlab chiqilishi; Uchinchi bosqich 1995-1997-yillarda turizm sohasida xususiyashtirish jarayoni; To‘rtinchi bosqich 1998-2016-yillarda milliy turizmni jahon andozasi darajasida shakllantirish va sohada huquqiy asoslarning

⁸ Mansurov M. Sh. Sobiq Sovet davrida turizmning rivojlantirishning mafkuraviy asoslari //Xorazm Ma’mun akademiyasi axborotnomasi: №1 (70). 2021. – B.106-109.

takomillashuvi; Beshinchi bosqich 2016-yildan hozirgi davrgacha turizmning taraqqiyot davri. Har bir davlat o‘z taraqqiyoti uchun sarmoya kiritisa, kelgusi yillarda dunyoning rivojlangan davlatlari qatoridan joy egallaydi. O‘zbekiston ham ajdodlaridan qolgan merosni dunyoga tanitishga harakat qilmoqda.

O‘zbekistonda 7-8mingdan ortiq tarixiy obidalar mavjud bo‘lib, undan 200 dan ortig‘i YUNESKO ro‘yxatida⁹. Bugungi kunda bu ro‘yxatni kengaytirish ishlari jadal rivojlanib bormoqda va xorijiy hamda mahalliy turistlarni moddiy madaniyat yodgorliklarimizga keng jalb qilish ishlari amalga oshirilmoqda.

XULOSA. Kichik ilmiy tadqiqotni yoritib berishda biz O‘zbekistonda turizm qadimgi davrlardan to hozirgacha taraqqiy etib kelayotganligiga ishonch hosil qildik. Turizm infratuzilmasi davlatlar va xalqlarning nafaqat madaniy, balki ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan rivojlanishida muhim ahamiyatga ega va uning salohiyatini oshirishda yetarlicha shart-sharoitlar yaratish zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Bo‘riyev A. O‘zbekistonning moddiy-madaniy merosi obyektlarining YUNESKO umumjahon madaniy merosi ro‘yxatiga kiritilish tarixi. International scientific journal of Biruni. Vol.2, Issue 1. Feb(2023)-B.49.
2. Madrimova A., Saydullayeva O. Turizm sohasining tarixi va uning rivojlanish davrlari. Yurtimizning tarixiy manzilgohlari.-B.1. cyberleninka.ru/article. Research focus, Uzbekistan. Volume 2. Issue 2.2023.-B.2
3. Mansurov M. Sh. Sobiq Sovet davrida turizmning rivojlantirishning mafkuraviy asoslari. Xorazm Ma‘mun akademiyasi axborotnomasi: №1 (70). 2021. –B. 106-109.
4. Rui Gonsales de Klavixo. Samarqandga – Amir Temur saroyiga sayohat kundaligi (1403-1406-yillar). Toshkent.”O‘zbekiston”.2010.-B.10.
5. Uz.m.wikipedia.org/wiki/Turizm#

RAQAMLI VALYUTALAR VA MARKAZLASHMAGAN MOLIYA TIZIMLARI: O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTIDA YANGI ISTIQBOLLAR

Nuriddinova Gulsanam Bahriddin qizi
BDU, Iqtisodiyot va turizm fakulteti,
Iqtisodiyot yo‘nalishi 1-bosqich talabasi
Narzullayeva Gulchehra Salimovna (ilmiy rahbar)
BDU, Iqtisodiyot va turizm fakulteti,

⁹ Bo‘riyev A. O‘zbekistonning moddiy-madaniy merosi obyektlarining YUNESKO umumjahon madaniy merosi ro‘yxatiga kiritilish tarixi // International scientific journal of Biruni. Vol.2, Issue 1. Feb(2023)-B.49.

Annotatsiya. Ushbu maqolada raqamli valyutalar va markazlashmagan moliya tizimlarining O'zbekiston iqtisodiyotiga ta'siri va ularning rivojlanish istiqbollari tahlil qilinadi. Raqamli moliyaviy texnologiyalarning joriy etilishi an'anaviy bank tizimiga qanday ta'sir ko'rsatishi, kriptovalyutalar va markazlashmagan moliya vositalarining iqtisodiy barqarorlikka ta'siri o'rganiladi. Shuningdek, O'zbekiston sharoitida raqamli aktivlar uchun huquqiy va tartibga solish mexanizmlari muhokama qilinadi. Tadqiqot natijalari ushbu yo'nalishda olib boriladigan islohotlar va investitsion muhitni yaxshilash bo'yicha takliflarni o'z ichiga oladi.

Kalit so'zlar: raqamli valyutalar, markazlashmagan moliya, kriptovalyutalar, O'zbekiston iqtisodiyoti, tartibga solish, moliyaviy texnologiyalar, investitsiya muhiti, iqtisodiy barqarorlik.

Yurtimiz O'zbekistonda mustaqillikka erishilgan kundan boshlab turli-tuman iqtisodiy siyosatlar qo'llanib kelinmoqda va albatta bular mamlakatimiz ravnaqi uchun o'z hissasini qo'shmay qolmadi. So'nggi yillar davomida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan qabul qilingan 2020-yil 5-oktyabrdagi "Raqamli O'zbekiston — 2030" strategiyasi[1] hamda 2020-yilning 12-maydagi PF-5992-sonli “O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi”[2] farmonlari mamlakatda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish, barcha sohalarda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etishni va bank tizimini isloh qilish orqali raqamli moliyaviy xizmatlarni kengaytirish va innovatsion texnologiyalarni joriy etishni maqsad qilgan.

Iqtisodiyot - mulkchilikning turli shakllariga asoslangan xo'jaliklardan, xo'jaliklararo, davlatlararo birlashmalar, korporatsiyalar, konsernlar, qo'shma korxonalar, moliya va bank tizimlaridan, davlatlar o'rtasidagi turli iqtisodiy munosabatlardan iborat o'ta murakkab iqtisodiy tizimni anglatadi.[3] Hamda shunday bir murakkab tizim uchun bugungi kunda raqamli valyutalar,

markazlashmagan moliya tizimlari juda dolzarb hisoblanadi. Sababi, bugungi kunda moliyaviy texnologiyalar kun sayin rivojlanib bormoqda va raqamli valyutalar asta-sekinlik bilan an'anaviy pul tizimiga muqobil sifatida paydo bo'lmoqda. Shuningdek, markazlashmagan moliya tizimlarining ahamiyati ham mavjud bo'lib, ular banklarsiz moliyaviy xizmatlar ko'rsatish imkoniyatini beradi. Mutaxassislarning fikricha, kelgusi 5-10 yil ichida, shu zaylda davom etsa, ko'plab banklar raqamlashishi kutilmoqda. Shu o'rinda aytib o'tish joizki, yirik davlatlar (Xitoy, AQSH, Yevropa Ittifoqi) allaqachon o'z raqamli valyutalarini sinovdan o'tkazishmoqda va bu jarayondan O'zbekiston iqtisodiyoti ham ortda qolmasligi kerak.

Bugungi kunda raqamli texnologiyalar bilan iqtisodiyot tarmoqlarini modernizatsiya qilish yuqori samaradorlikka erishish imkonini bermoqda. Shu boisdan, bugungi davr mutaxassislar tomonidan “raqamli iqtisodiyot” davri deb e'tirof etilmoqda.[4] “Raqamli iqtisodiyot” davrida raqamli valyuta va raqamli banklar muhim o'ringa ega desak mubolag'a bo'lmaydi.

Raqamli banklar internet orqali amalga oshiriladigan barcha moliyaviy operatsiyalar, xaridlar va savdo ishlari uchun qo'llaniladigan banklar bo'lib, ular kun sayin yurtimizda ommalashib bormoqda. Ularga misol qilib “Kapitalbank”ning Kapitalbank Mobile, «Ipak Yo'li Bank»ning Ipak Yo'li Mobile ilovalarini, shuningdek, «Humo» Humo Digital - O'zbekistondagi birinchi raqamli bankni keltirishimiz mumkin.[5]

Raqamli valyuta - an'anaviy valyutalardan farqli o'laroq, faqat elektron shaklda mavjud bo'lgan va tranzaksiyalar blokcheyn yoki boshqa raqamli tizimlar orqali amalga oshiriladigan valyutalar. Yuqorida aytib o'tganimizdek, raqamli iqtisodiyotni raqamli valyutasiz tasavvur qilib bo'lmaydi va O'zbekiston ham bundan mustasno emas. O'zbekiston Markaziy banki ham o'z milliy valyutasining, so'mning, raqamli shaklini ishlab chiqish ustida bosh qotirmoqda.[6]

Raqamli valyuta va raqamli bank iqtisodiyotda bir-biriga juda chambarchas bog'liq. Raqamli valyuta (masalan, Bitcoin yoki davlat tomonidan chiqarilgan raqamli valyutalar) va raqamli bank (masalan, onlayn banklar yoki raqamli pul o'tkazmalari tizimlari) iqtisodiy tizimda turli jihatlardan o'zaro aloqada bo'lishadi. Shu bilan birga, raqamli bank va raqamli valyutalar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni yanada chuqurlashtirish uchun, davlatlar va markaziy banklar yangi siyosatlarni ishlab chiqish, texnologik infratuzilmani rivojlantirish va xalqaro hamkorlikni mustahkamlash zarur. Bu, o'z navbatida, iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashga yordam beradi.

Markaziy banklarning raqamli valyutalari (Central Bank Digital Currency, CBDC) muqobil yoki qo'shimcha to'lov vositasi sifatida foydalaniladigan virtual milliy puldir. Ko'pincha, ularning qiymati milliy valyutaga bog'langan, lekin qimmatbaho metallar (E-gold, WebMoney Gold — WMG), kriptovalyutalar kabi suzuvchi kurs bilan bog'lanish ham mumkin.[7]

Raqamli valyutalarning bir necha turlari mavjud:

- I. Kriptovalyutalar (Bitcoin, Ethereum) - bu blokcheyn texnologiyasidan foydalangan holda onlayn operatsiyalarni amalga oshirish uchun ishlatiladigan raqamli yoki virtual valyutalar. Dollar yoki yevro kabi an'anaviy valyutalardan farqli o'laroq, kriptovalyutalar jismoniy shaklga ega emas va faqat raqamli muhitda mavjud. Ular hukumat yo bank kabi markaziy organ tomonidan boshqarilmaydi.[8]
- II. Markaziy bank raqamli valyutalari (CBDC) - kriptovalyutalardan farqli o'laroq, hukumat yoki markaziy bank tomonidan chiqariladi va nazorat qilinadi. Ularga misol tariqasida Xitoyning “Digital Yuan” yoki Yevropa Markaziy Bankining rejalashtirilayotgan raqamli yevrosini keltirishimiz maqsadga muvofiq.

Shu o'rinda blokcheyn tizimi haqida ham aytib o'tish joiz. Blokcheyn - taqsimlangan va ishonchli tranzaksiyalar registri hisoblanib, bu tarmoq a'zolari o'rtasida to'g'ridan-to'g'ri operatsiyalarni amalga oshirishga imkon beradi. Bu esa tezroq va arzonroq operatsiyalarni amalga oshirishga imkon yaratadi.[9]

Raqamli valyutalardan foydalanishni dunyo davlatlari tajribasida ko'rishimiz mumkin. Dunyoning bir qator rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlari o'z raqamli valyutalari ustida bosh qotirishmoqda va ayrimlari buni sinovdan ham o'tkazishgan. Masalan, Xitoyning "Raqamli yuan"i allaqachon sinovdan o'tkazilgan va foydalanishga joriy qilinmoqda; AQSH federal zaxira tizimi hali CBDC'ni joriy qilish bo'yicha ehtiyotkor yondashmoqda, lekin izlanishlar olib bormoqda; Yevropa Ittifoqi "Raqamli yevro" loyihasi ustida ishlamoqda.

O'zbekiston ham o'z raqamli valyutasi ustida ishlamoqda ekan, jahon tajribasidan foydalangan holda buni amalga oshirib, shu kungacha raqamli iqtisodiyot ko'lamida qator islohotlar o'tkazmay qolmadi. Jumladan:

- i. raqamli texnologiyalar va platformalar yaratish hamda raqamli xizmatlar ko'rsatish sohasida maksimal darajada kichik va o'rta korxonalar tashkil etish hamda samarali faoliyatini ta'minlash;
- ii. hokimiyat, tadbirkorlar va fuqarolar ehtiyojlarini qondirish uchun ma'lumotlar bilan ishlashning raqamli platformalarini joriy etish;
- iii. naqd pulsiz (elektron) to'lovlar, masofadan foydalanish va bank-moliya sohasidagi faoliyatning boshqa elektron shakllari tizimlariga to'liq o'tish;
- iv. elektron to'lov vositalarining jahon to'lov tizimlari bilan integratsiyasini ta'minlash;
- v. axborot texnologiyalari sohasida innovatsion faoliyatni qo'llab-quvvatlash uchun texnoparklar, biznes-xablar, ilmiy-texnologik klasterlar va kovorking-markazlar, venchur jamg'armalarning barqaror o'sishini ta'minlash va boshqalar.

Mazkur vazifalarni amalga oshirilishi kelajakda mamlakatimizda raqamli iqtisodiyotni shakllantirish va uning faoliyat ko'rsatishi uchun muhim ahamiyatga ega bo'lib, tovar va xizmatlarni ishlab chiqarish va eksport qiladigan mamlakatlar qatoridan joy olishga imkoniyat beradi. Bu esa milliy iqtisodiyotimizga samarali menejment tizimini joriy etish, turmush sifatini oshirish, elektron tijorat va onlayn savdo hajmini oshirishga olib keladi.[10] Raqamli valyutalar O'zbekistonda

Click va Payme kabi mobil to‘lov tizimlari moliyaviy xizmatlarga kirishni soddalashtirib, kelgusida raqamli valyutalar ushbu platformalar bilan integratsiyalashgan holda xalqaro to‘lovlar va jamg‘arma vositalarini taklif qilishi mumkin.[11]

Yuqorida aytganimizdek, so‘nggi yillarda O‘zbekiston Respublikasi hukumati bozor munosabatlariga asoslangan iqtisodiyotni, asosan raqamli iqtisodiyot - raqamli valyuta va markazlashmagan moliya tizimlarini, yaratishga qaratilgan izchil iqtisodiy islohotlarni amalga oshirmoqda. Islohotlar strategiyasi davlat iqtisodiy siyosatining keng qamrovli dastaklarini o‘z ichiga oladi. Mana shunday dastaklardan eng muhimlaridan biri - davlatning izchil moliyaviy siyosati va albatta moliyaviy tizimi hisoblanadi.[12]

Davlat moliyasi moliya tizimining asosiy qismini tashkil etadi, uning asosiy bo‘g‘ini esa davlat byudjetidir. Davlat moliyasining iqtisodiy tuzilishi tom ma’noda bir xilda emas, u bir-biriga bog‘liq bo‘lgan bo‘g‘inlardan tashkil topsada, lekin, bajarayotgan funksiyalari bilan bir-biridan farq qiladigan bo‘g‘inlar yig‘indisidan iboratdir.[13] Va markazlashmagan moliya tizimi an’anaviy bank tizimlaridan farq qilib, markazlashmagan moliya (DeFi) tizimlarida moliyaviy xizmatlar bank yoki boshqa markaziy institutlarsiz amalga oshiriladi; raqamli valyutalar kabi tranzaksiyalar blokcheynda qayd etiladi va smart-kontraktlar orqali avtomatik ravishda amalga oshiriladi; ochiq va shaffoflikka ega bo‘lib, har bir tranzaksiya shaxsiylikni saqlagan holda kuzatilishi mumkin.

DeFi, ya’ni markazlashmagan moliya tizimlari asosan uch usulda ishlaydi:

- **Smart-kontraktlar** – banklarsiz kredit olish, sug‘urta qilish, investitsiya kiritish imkonini beruvchi avtomatlashtirilgan dasturlar.
- **Likvidlik havzalari (liquidity pools)** – foydalanuvchilar o‘z aktivlarini DeFi platformalariga qo‘yib, savdo yoki kreditlash uchun foydalanishga beradi va buning evaziga daromad oladi.

- **Staking va yield farming** – foydalanuvchilar kriptovalyutalarini bloklab, platformalr orqali passiv daromad olishi mumkin.

Har bir tizimning afzallik va xavflari mavjud bo'lgani kabi, DeFinig ham afzalliklari hamda xavflari mavjud. Afzalikllari moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyatining kengayishi, banklarsiz kredit olish va investitsiya qilish mumkinligi, past tranzaksiya xarajatlari, bank komissiyalari yo‘q yoki minimalligi, ochiq va shaffof tizimligidan iborat bo‘lib, xavflari smart-kontrakt xatolariga bog‘liq xavflarning mavjudligi, agar dasturda xato bo‘lsa, mablag‘ yo‘qotilishi mumkinligi, xavfsizlik tahdidlari – xakerlik hujumlari ehtimoli va noqonuniy faoliyatlar va tartibga solish muammolari – ko‘plab davlatlar DeFi tizimini tartibga solish yo‘lida turli cheklovlar qo‘ymoqdaligidan iboratdir.

Hozirda O‘zbekistonda DeFi (Markazlashmagan moliya tizimlari) bo‘yicha aniq tartibga solish mexanizmlari mavjud emas. Biroq, raqamli iqtisodiyotga o‘tish jarayonida ushbu tizimning rivojlanishi va qo‘llanilishi mamlakat uchun katta imkoniyatlar ochishi mumkin.

DeFi tizimlari O‘zbekiston iqtisodiyotiga quyidagicha ta’sir o‘tkazishi mumkin:

- Moliyaviy xizmatlarning kengayishi – bank hisobvarag‘iga ega bo‘lmagan fuqarolar ham DeFi platformalari orqali kredit olish, investitsiya kiritish va boshqa moliyaviy xizmatlardan foydalanishi mumkin;
- Xorijiy investitsiyalarni jalb qilish – DeFi tizimlari orqali xalqaro investorlar O‘zbekiston iqtisodiyotiga sarmoya kiritishlari osonlashadi;
- Tezkor va arzon moliyaviy operatsiyalar – an’anaviy bank tizimlariga qaraganda tranzaksiya xarajatlari kam bo‘ladi, pul o‘tkazmalari tezroq amalga oshiriladi;
- Shaffoflik va xavfsizlik –blokcheyn texnologiyasi orqali tranzaksiyalar kuzatib borilishi mumkin, bu esa moliyaviy firibgarlik va korrupsiyaning oldini oladi.

O‘zbekistonda DeFi tizimlarini rivojlantirish va tartibga solish uchun qonunchilik bazasini yaratish, raqamli infratuzilmani rivojlantirish va axborot xavfsizligini

mustahkamlash zarur. Aholi va tadbirkorlarning moliyaviy savodxonligini oshirish maqsadida trening va seminarlar tashkil etish, shuningdek, mahalliy DeFi loyihalarni qo‘llab-quvvatlash muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekistonda raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi, innovatsiya va texnologik o‘zgarishlar, kompaniyalar uchun tashqi bozorlarga chiqish, faoliyat yuritish, raqobatga kirishish, foydani maksimallashtirish, tajriba orttirish kabi muhim vazifalarga imkon yaratmoqda.[14] O‘zbekistonda raqamli valyuta va markazlashmagan moliya tizimlariga o‘tish jarayoni haqida so‘z borar ekan, bu jarayonda kutilayotgan imkoniyatlar va muammolar haqida aytib o‘tish ham joiz. Imkoniyatlarga moliyaviy inklyuziya – bank xizmatlaridan foydalanishning kengayishini, tez va arzon tranzaksiyalar – to‘lov tizimlari samaradorligining oshirishini, investitsiyalar – xorijiy kapital jalb qilish imkoniyatini, shaffoflik – korrupsiya va firibgarlikning kamayishini, innovatsiyalar – IT va FinTechning rivojlanishi hamda muammolarga infratuzilma – internet sifati va xavfsizlikning zaifligini, qonunchilik – DeFi va kriptovalyutalar hali to‘liq tartibga solinmaganligini, xavfsizlik – xakerlik va firibgarlik xavfining yuqoriligini, savodxonlik – aholining bilim darajasi pastligini, integratsiya – bank tizimi bilan bog‘liq muammolar mavjudligini keltirishimiz mumkin.

O‘zbekistonda raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi, innovatsiya va texnologiyalarni joriy etish jarayonlari kelajakda mamlakat iqtisodiy barqarorligi va xalqaro raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi. O‘zbekiston iqtisodiyoti so‘nggi yillarda raqamli texnologiyalarni joriy etish va innovatsion moliyaviy yechimlarni rivojlantirish yo‘lida jadal rivojlanmoqda. “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi hamda bank tizimini isloh qilish bo‘yicha qabul qilingan hujjatlar mamlakatda raqamli iqtisodiyotni shakllantirish uchun muhim qadam bo‘ldi. Raqamli valyutalar va markazlashmagan moliya tizimlari moliyaviy operatsiyalarni soddalashtirish, tranzaksiya xarajatlarini kamaytirish va shaffoflikni oshirish orqali iqtisodiyotga ijobiy ta’sir ko‘rsatmoqda.

Xalqaro tajribalar shuni ko‘rsatadiki, raqamli valyutalarning rivojlanishi bank tizimining zamonaviylashishiga va naqd pulsiz iqtisodiyotga o‘tishga zamin yaratmoqda. O‘zbekiston ham bu jarayondan ortda qolmay, o‘z milliy raqamli valyutasini yaratish bo‘yicha izlanishlar olib bormoqda. Shu bilan birga, DeFi (markazlashmagan moliya tizimlari) mamlakatimiz uchun yangi imkoniyatlar eshigini ochib, moliyaviy xizmatlardan kengroq foydalanish, xorijiy investitsiyalarni jalb qilish va iqtisodiy faoliyatni oshirishda muhim rol o‘ynashi mumkin. Biroq, raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish uchun muayyan muammolarni bartaraf etish lozim. Qonunchilik bazasini mustahkamlash, kiberxavfsizlikni ta‘minlash, aholi va tadbirkorlarning moliyaviy savodxonligini oshirish hamda davlat va xususiy sektor o‘rtasidagi hamkorlikni rivojlantirish bu borada muhim ahamiyatga ega.

Xulosa qilib aytganda, O‘zbekistonda raqamli valyutalar va markazlashmagan moliya tizimlarini rivojlantirish iqtisodiyotning barqaror o‘shishiga xizmat qiladi. Mamlakat raqamli iqtisodiyotning imkoniyatlaridan unumli foydalanib, innovatsion moliyaviy yechimlarni joriy etsa, iqtisodiy rivojlanishda yangi bosqichga ko‘tarilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Iqtisodiyot nazariyasi, o‘quv qo‘llanma, 2017-yil, 13-bet [3]
2. Xalqaro marketing, o‘quv qo‘llanma, 2020-yil.
3. Narzullayeva G.S. & Samatov B.B (2024). Raqamli banklar va ularning afzalliklari, 2 [4][5]
4. Ma‘murov B. (2024). Raqamli iqtisodiyot asoslari va O‘zbekistonning ushbu sohadagi ustuvor yo‘nalishlari[10]
5. Xasanova D.U. & Xusainov O.D. (2024). Raqamli valyutalarning rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiyotiga ta‘siri[11]
6. Ibragimov A.T. & Shodiyeva A.D. (2025). O‘zbekiston Respublikasida moliya tizimi va uning iqtisodiyotda tutgan o‘rni[12]
7. Xalilov B.B. (2025). Davlat moliyasi[13]
8. PF-6079-coH 05.10.2020. “Raqamli O‘zbekiston-2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida (lex.uz) [1]
9. PF-5992-coH 12.05.2020. 2020-2025-yillarga mo‘ljallangan O‘zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to‘g‘risida (lex.uz) [2]
10. Raqamli so‘m aslida nima va u nega kerak – Spot [6][7]